

АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК КАК ВИД УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Режапов Абдушукур Абдукарим ўғли

Андижанский сельскохозяйственный и агротехнологический институт,
преподаватель кафедры иностранных языков

Аннотация. В данной статье как вид деятельности «Чтение» выражено как средство общения. Через чтение предоставляется информация о том, как учащиеся могут познакомиться с языком, культурой, бытом, историей, обычаями иноязычных стран.

Ключевые слова. Чтение, общение, рецептивное, аналитическое, синтетическое, традиционное.

ENGLISH AS A TYPE OF STUDYING ACTIVITY

Rejapov Abdushukur Abdukarim o'g'li

Andijan agricultural and agro technological institute,
Teacher of the Department of Foreign Languages

Annotation. In this article, as a type of activity, "Reading" is expressed as a means of communication. Through reading, information is provided on how students can get acquainted with the language, culture, life, history, and customs of foreign-speaking countries.

Key words. Reading, communication, receptive, analytical, synthetic, tradition.

INGLIZ TILI O`QISHNING FAOLIYAT TURI SIFATIDA

Rejapov Abdishukur Abdukarim o'g'li

Andijon qishloq xo'jalik va agrotexnologiyalar instituti,
Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada faoliyat turi sifatida "O`qish" aloqa (kommunikasiya) vositasi sifatida ifodalanishi. O`qish orqali o`quvchi, talabalarning xorijiy tilida gaplashadigan mamalakatlar tili, madaniyati, hayoti, tarixi, urf-odatı bilan tanishishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. O`qish, komunikatsiya, reseptiv, analitik, sitetik, urf-odat,

O`qish – ko`z bilan ko`rayotgan harf, harf birilmalari, so`zlar gaplarni ovoz chiqarib, chiqarmay o`qish va o`qiganning mazmunini tushunib, o`qib ma`lumot olishdir. O`qish yozma nutqda berilgan matindan ma`lumot olish nutq turidir.

O`qish – tanish til materiallari asosida notanish mazmunli matnni o`qib ma`lumot olish, mazmunni tushunishdir. Yani o`qish ma`lumot olish manbaidir.

O`qish kishilarning kommunikativ-ijtimoiy faoliyat sohasiga taalluqli bo`lib, unda u yozma shakldagi so`z orqali muamalani ta`minlaydi. Kishilarning turmush, ta`lim va ishlab chiqarish sohalardagi faoliyatlarida o`qishdan keng foydalaniladi. O`qish orqali ma`lumot olish turli faoliyatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O`qishda boshqa har qanday faoliyatdagi kabi mazmun va jarayon rajalari mavjud bo`lib, birinchisiga doimo kata ahamiyat beriladi. Faoliyatning predmet mazmunini tashkil qiluvchilar o`qishning mazmun rejasi sanaladi. Faoliyat jarayonining elementlari o`qishning jarayon tomoni hisoblanadi.

O`qish doimo tayyor holdagi nutq axborotini idrok qilishga, olishga yo`nalgan bo`ladi, shuning uchun uni nutq faoliyatining resiptiv turiga kiritishadi. O`qishning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning muvaqqiyati amalga oshirilganligi haqidagi baho kitobxonning olingan ma`lumotdan qoniqish hisil qilganligida o`z ifodasini topadi.

O`qish murakkab resiptiv aqliy faoliyat hisoblanib, uning jarayon tomoni anilitik-sintetik xarakterga egadir.

O`qish orqali biz ma`lumot olamiz, bilimimizni, dunyoqarashimizni kengaytiramiz, shuning uchun o`qish nutq faoliyatining turidir.

Hozirgi davr metodika o`qishni ingliz tilini o`qitish usuli, yo`li deb qaralmay, uni til materiallarini o`zlashtirishga yordam beruvchi, uni asosida (matndan) nutqni rivojlantirish uchun qo`llaniladigan material manbai, ma`lumot olish manbai deb qaralmoqda.

Shu sababdan o`qiyotganda asosiy diqqat matn mazmuniga qaratiladi. Dasturda o`qish bo`yicha umumiy talablar va har bir kurslar uchun talablar belgilanib beriladi. O`rta maktabda o`qishni o`rgatish ham maqsad, ham vositadir, ya`ni o`qish chet tili o`rgatishda ham maqsad, ham vosita vazifasini bajaradi.

Agar bitiruv chiquvchilarning o`qish ko`nikmasi mukammal bo`lsa, ular o`zlari egallagan ana shu ko`nikmadan amaliy ravishda mustaqil foydalanish imkoniga ega bo`ladilar. O`qishning etuklik darajasi har –xil bo`lishi mumkin, shuning uchun o`rta maktab oldida o`qishning minimal rivojlanish darajasiga erishish vazifasi turadi.

O`qishning amaliy maqsadi o`qib ma`lumot olishdir.

Amaliy maqsaddan tashqari o`qishni o`rgatish umumta`lim va tarbiyaviy maqsadlarini ham nazarda tutadi. Bulardan tashqari o`qishni o`rgatish rivojlantiruvchi maqsadni amalga oshiradi. O`qish paytida o`quvchi, talabaning o`rganilayotgan ingliz tili matni bilan uning kuzatuvchanligi rivojlanadi va ularning til materiallari, matn mazmunini analiz va sintez qilish qobiliyatlari takomillashadi.

Endi o`qishning vosita sifatidagi vazifasi ustida to`xtaymiz. O`qish til materialini egallab olishda muhim vosita hisoblanadi. Shu narsani alohida ta`kidlash kerakki, matnlarni o`qishni o`rgatish, lug`atni boyitish usullaridan biri sifatida muhim ahamiyatda ega.

O`qish gapirish ko`nikmasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. O`qilgan matnlarning mazmuni bo`yicha savol-javob masiqlarini bajarish, hikoya qilib berish, suhbat va muhokamalar qilish ko`p mashqlarga asos bo`lidi. O`qish orqali gapirish uchun ma`lumot, material to`planadi. Ularni ingliz tilida gapirishga tayyorlaydi. Ovoz chiqarib o`qish esa to`g`ri talaffuzga o`rgatishda va yangi til materiallarini tushunishda muhim bosqich sanaladi. Bundan tashqari ovoz chiqarib o`qish ovoz chiqarmay o`qishning etuk ko`nikmasini shakllantiradi ham muhim vosita rolini o`ynaydi.

O`qish nutq faoliyatining psixologik xususiyatlaqni. O`qish reseptiv nutq faoliyati hisoblanib, u yozma nutqni idrok qilish va tushunishdan tarkib topadi. Ko`rib qabul qilinadigan matnni tushunish ushun so`zlarning yozuv tasvirini, ularning tovush harakat obrazlari bilan, tovush-mator obrazlarni esa ularga mos keladigan tovushlar bilan muvofiq keltirish kerak.

O`qish paytida ikkita asosiy o`zaro bog`liqlik jarayolarini ajratib ko`rsatish mumkin:

1. Bosmadan chiqarilgan yoki yozilgan matinni idrok qilish.

2. O`qilgan matnni anglash (tushunish)

Ko`rsatib o`qilgan ikkila jarayon biri ikkinchisidan ajralmagan holda bir vaqtda va o`zaro bog`liq ravishda namoyon bo`ladi. Boshqa nutq faoliyati turlari singari, o`qish uchun ham antisipasiya (oldindan bilish yoki sezish) mexanizmi ayrim so`zlarga, kontekstga qarab so`zni to`g`ri fahmlash, keying so`zlar, jummalarni oldindan ko`ra bilish, tushuna olish ko`nikmasidir. Boshqacha qilib aytganda bu mexanizm taxminiy oldindan sezish yoki oldindan sezish yoki oldindan aytib berish deb atalishi mumkin. O`qish psixologiyasi masalalari bilan shug`ullanuvchi barcha tadqiqotlar antisipasiyani shakllantirish va rivojlantirish zarurligini ta`kidlaydilar.

O`qish texnikasini shakllantirish-uzoq davom etadigan jarayon bo`lib, u sifat jihatdan farq qiladigan qator bosqichlar tovushni talaffuz qilishda tortib, matnni tovush chiqarib o`qishgacha bo`lgan bosqichlarni o`z ichiga oladi. Bu bosqichlarni har o`ziga xos xususiyatlari va ularni egallash usullari bilan farq qiladi.

Matnni tushunish bosqichma-bosqich tushunish xarakteriga egadir. Ayrim mualliflar tomonidan matnning ikkitadan ettitagacha bo`lgan mazmunini tushunish bosqichlarini ajratishadi. Bu bosqichlarning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- 1) Alohida so`zlar, gaplar va mtn qismlarini tushunish bosqichi, ya`ni matnni qisman tushunish bosqichi:
- 2) Matn tili va uning birikmalari, ma`nolarini tushunish bosqichi, ya`ni ma`nolar bosqichi:
- 3) Matnning mazmuni tomonini tushunish bosqichi, mazmun bosqichi, ya`ni mazmun bosqichi.

O`qish psixologiyasi bilan bog`liq bo`lgan masalalar o`qish nutq faoliyati sifatida shakllanishda metodika ishni tashkil qiluvchi o`qish mexanizmlari yoki operatsiyalarini aniqlash imkonini beradi. Bu narsa tilning yozuv tizimini egallashni, harf va tovush o`rtasida aniq bog`lanilishini ishlab chiqishni, so`zlarning o`qish qonunlarini egallashni, uni ma`no va Grammatik shakl bilan muvofiqlashtirishni o`z ichiga oladi.

Psixologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha o`qish paytida ko`rish – yozuv va nutq – harakatsezigilari o`rtasida bevosita aliqa paydo bo`ladi. O`qishning

psixofiziologik mexanizmi ko`rish-yozuv va nutq –harakat sezgilarini o`z ichiga oladi. Ularning o`zaro birga nutq faoliyatida ishtirok etish o`qish paytida ma`lumot olishni ta`minlaydi.

Inglizcha matnni o`qib tushnishda 2 ta jarayon sodir bo`ladi:

1. Qabul qilish

2. Tushunish

Insonda ikkita signal tizimi bor. Birinchi signal harakatga predmetlarni ta`siri natijasida, predmet qozgatuvcilar asosida qarashiga tutadi, ikkinchi signal tizimi so`z qo`zgatuvchilar asosida haralatga tushadi.

Psixologik nuqtai nazarda matnni to`g`ri talaffuz qilish mazmunni tushunmay o`qish bu o`qish emasdir. O`qish malaka ko`nikmalarini hosil qilish, ko`rish, qabul qilish, talaffuz, tinglash, tushunish jarayonlarini bir-biri bilan to`f`ri chambarchas bog`lab bir jarayon hosil qila olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1. A.A.Mirollyabov, I.V.Raxmonov, O`rta maktabda chet tili o`qitishning umumiy metodikasi. 2000. 120-125 betlar
2. М.В.Ляковицкая, А.А.Миролюбов. Методика обучения иностранном языкам в средней школе. 2002, 145-158 betlar
3. Х. Алимова. Значение упражнений в комплексной тренировке всех видов речевой деятельности. № 6(73)-с.: 2020.